

YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISH

To‘ychiyev Adham Amrullayevich

Guliston davlat universiteti katta o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1474012>

Annotatsiya. Yoshlarni to‘g‘ri kasb tanlashlari va o‘z sohasining yetuk mutaxassislari bo‘lishlarida kasblarning inson oldiga qo‘yadigan talablarini bilish muhimdir. Mazkur maqolada har qanday kasb egasi o‘z sohasini to‘g‘ri tanlay olishi uchun qanday kasbiy va shaxsiy talabalarni bilishi lozimligi masalasi keng tarzda tahlil etilgan. Shuningdek, hayot sifatini oshirishda soha egasining o‘zi bajarayotgan faoliyatidan qanchalik darajada qanoat hosil qilishi, o‘z hayotidan mammunlik darajasi ham muhim ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: kasbga yo‘naltirish, kasbiy targ‘ibot, talaba, faoliyat, kasbiy maslahat, kasbiy saralash, kasbiy moslashish.

CAREER GUIDANCE FOR YOUNG PEOPLE

Abstract. It is important for young people to know the requirements that professions place on a person in order to choose the right profession and become qualified specialists in their field.

This article comprehensively analyzes the issue of what professional and personal students any professional should know in order to choose their field correctly. It is also based on the fact that in improving the quality of life, the level of satisfaction of the professional with the activities he performs and the level of satisfaction with his life are also important.

Keywords: career guidance, career promotion, student, activity, career advice, career selection, career adaptation.

ПРОФОРИЕНТАЦИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. Молодым людям важно знать требования, которые профессии предъявляют к человеку, чтобы правильно выбрать профессию и стать квалифицированными специалистами в своей области. В данной статье подробно анализируется вопрос о том, какими профессиональными и личностными качествами должен обладать любой специалист, чтобы правильно выбрать сферу своей деятельности. Он также основан на том факте, что улучшение качества жизни зависит от уровня удовлетворенности, который владелец отрасли получает от своей работы, и уровня удовлетворенности собственной жизнью.

Ключевые слова: профориентация, продвижение по службе, студент, деятельность, консультирование по вопросам карьеры, выбор профессии, адаптация к профессии.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida yoshlarni kasbga yo‘naltirish masalasi juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarning to‘g‘ri kasb tanlashlari, o‘z salohiyatlarini maksimal darajada amalga oshirishlari uchun ta’lim jarayonida ular uchun mos kasbga yo‘naltirish tizimi yaratilishi zarur. Bu tizimning samarali ishlashi nafaqat talabalar, balki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi uchun ham muhimdir.

Kasb tanlash — bu har bir insonning hayotidagi muhim qarorlaridan biridir. To‘g‘ri kasbni tanlash nafaqat kelajakdagi ish faoliyatini, balki insonning o‘zini anglashini, qoniqish va baxtini ham ta’minlaydi. Kasb tanlashda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

1. Shaxsiy qiziqishlar va iste’dodlar

Kasb tanlashda eng muhimi — bu o‘z qiziqishlaringiz va istaklaringizga asoslanishdir.

Agar kasb sizga yoqmasa, uni bajarmoq qiyin bo‘ladi va u sizni qoniqtirmaydi.

Shuningdek, inson o‘zining tabiiy iste’dodlari va qobiliyatlarini ham hisobga olish kerak.

Agar siz matematika yoki fizikaga qiziqsangiz, muhandislik yoki ilmiy sohalarga e’tibor qaratish mantiqiy bo‘ladi.

2. Mehnat bozoridagi talab va imkoniyatlar

Kasb tanlashda mehnat bozoridagi talab va taklifni hisobga olish muhim. O‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitda ba’zi kasblar ortiqcha talabga ega bo‘lishi yoki yomon ish sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mavjud va istiqbolli kasblarni tahlil qilish, mehnat bozoridagi tendentsiyalarni kuzatish talabalar uchun muvaffaqiyatli kasb tanlashda yordam beradi.

3. O‘zining kelajagi va rivojlanish imkoniyatlari

Kasbni tanlashda o‘zingizni kelajakda qayerda ko‘rishingizni hisobga olish kerak. Ba’zi kasblar uzoq muddatli va rivojlanish imkoniyatlarini taklif qilsa, boshqalari nisbatan cheklangan bo‘lishi mumkin. Karyera imkoniyatlari, o‘qish va malaka oshirish imkoniyatlarini o‘ylab ko‘rish muhim.

4. Ijtimoiy va psixologik jihatlar

Kasb tanlashda ijtimoiy jihatlar ham muhim. Masalan, ba’zi kasblar o‘zaro aloqalar va jamoa bilan ishlashni talab qiladi, boshqalari esa yakka tartibda ishlashni afzal ko‘radi. Psixologik

jihatdan, insonlar o‘zlarining ishlash uslubiga qarab kasb tanlashlari kerak. Agar siz boshqalar bilan ishslashni yoqtirgan bo‘lsangiz, guruh bilan ishslashni talab qiladigan kasblarni tanlashingiz kerak.

5. Ish sharoitlari va ish haqi

Kasb tanlashda ishslash sharoitlari va ish haqi ham muhim omil bo‘lishi mumkin. Ba’zi kasblar yuqori daromad va yaxshi sharoitlarni taqdim etishi mumkin, boshqalari esa kamroq daromad, lekin o‘ziga xos qiziqarli yoki ijodiy ishlarni taklif etadi. Talabalar o‘zlarining ehtiyojlariga qarab ish sharoitlarini va maoshni baholashlari kerak.

6. Ta’lim va malaka talablari

Har bir kasb o‘ziga xos ta’lim va malaka talablariga ega. Ba’zi kasblar maxsus oliv ta’limni yoki malaka oshirishni talab qilsa, boshqalari qisqa muddatli kurslar yoki amaliy mashg‘ulotlar orqali ham o‘zlashtirilishi mumkin. Kasb tanlashda ta’lim jarayonini va unga sarflanadigan vaqtini hisobga olish muhim.

7. Shaxsiy hayot va ishning muvozanati

Ba’zi kasblar shaxsiy hayot bilan ish o’rtasidagi muvozanatni saqlashda qiyinchilik tug’dirishi mumkin. Kasb tanlashda ish va shaxsiy hayot orasidagi muvozanatni o‘ylash zarur. Agar siz oilaviy vaqtini qadrlasangiz, ishning shaxsiy hayotingizga to‘sinqilik qilmasligiga e’tibor berish kerak.

8. Xavfsizlik va sog‘liq uchun ta’sir

Ba’zi kasblar sog‘liq va xavfsizlikka zarar yetkazishi mumkin, masalan, kimyoviy moddalarga aloqada bo‘lish yoki og‘ir jismoniy mehnat talab qiladigan kasblar. Shuning uchun kasb tanlashda uning sog‘liq va xavfsizlikka ta’sirini ham hisobga olish kerak.

ASOSIY QISM:

Kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi - talabalarni o‘z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos kasb tanlashga yordam berishdir.

Kasbga yo‘naltirishning ahammiyati

Kasbga yo‘naltirish talabalarni ishga joylashish uchun tayyorlashdan tashqari, ularning o‘zaro aloqalarini, ijtimoiy va iqtisodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Yaxshi kasbga yo‘naltirish tizimi talabalar uchun quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. Kasbiy qiziqishlarning aniqlanishi: Talabalar o‘zlariga mos kasbni tanlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Kasbga yo‘naltirish bu jarayonni osonlashtiradi.

2. Mehnat bozori talablariga moslashish: Bugungi kunda tezkor texnologik rivojlanish va globalizatsiya mehnat bozorida yangi kasblarni yaratmoqda. Talabalar ushbu o'zgarishlarga moslashish uchun tayyor bo'lishlari zarur.

3. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish: O'quvchilarga o'z kasbini tanlashda kerakli bilimlar va ko'nikmalarni o'rgatish, shuningdek, ularni muvaffaqiyatli mehnat faoliyatiga tayyorlash muhimdir.

Kasbga Yo'naltirish Jarayonining Muammolari

Hozirgi kunda talabalarni kasbga yo'naltirishda bir nechta muammolar mavjud:

1. Kasbiy yo'nalishlarning aniq belgilanishi: Ko'plab ta'lif muassasalarida kasbga yo'naltirishning aniq tizimi yo'q yoki unchalik samarali ishlamayapti. Ba'zan, talabalar o'qish jarayonida qaysi sohada ishlashlari kerakligini aniq bilmaydilar.

2. Pedagogik tayyorgarlikning yetishmasligi: O'qituvchilar va murabbiylarning ba'zilari kasbga yo'naltirish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega emaslar. Bu esa talabalar uchun to'g'ri yo'naltirishni amalga oshirishda muammolarni keltirib chiqaradi.

3. Mehnat bozorining noaniqligi: Mehnat bozoridagi o'zgarishlar va yangi kasblarning paydo bo'lishi kasbga yo'naltirish jarayonini murakkablashtiradi. Talabalar uchun dolzarb va istiqbolli kasbni tanlash qiyinlashadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoshlarlarni kasbiy faoliyatga to'g'ri yo'naltirish va ta'lif samaradorligini oshirishda yuqori natijalarni beradigan uslublardan foydalanish muhim omillardan hisoblanadi. Yosh mutaxassislarga pedagogik-psixologik bilimlar, uslubiy ko'rsatmalar berish bilan birgalikda, tanlagan kasbi bo'yicha ham keng qamrovli bilimlar berish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarni kelajakda mutaxassis sifatida o'zlarini teranroq tasavvur qilishlari va egallayotgan kasbiga xos-mos sifatlarni shakllantirishda pedagoglar va amaliyotchi psixologlarning o'rni kattadir. Yoshlarga ertangi kunda o'z faoliyatlaridan qoniqish hissini paydo qilishlari hamda o'z hayotlaridan mamnun yashashlari bugungi kundagi kasb bilimlarini to'g'ri egallay olishlariga bog'liqligini anglata olishlari lozim. Shundagina har bir inson har tomonlama sifatli hayot kechirishi va mavjud to'siqlarni osonlikcha yengib o'tishi mumkin bo'ladi. Natijada sohaning rivoji ancha tezlashadi. Bu esa jamiyat ravnaqidan dalolatdir. Mamlakatimizda uzuksiz ta'lif tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu

bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lif tizimining ustuvor yo'nalişlaridan biri hisoblanadi.

Kasbning mazmunini va mohiyatini tushunmaslik talabalarda tanlagan kasbiga munosabatining salbiylashishiga olib keladi. Bunday holatning oldini olish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- O'quv materiallarini, umuman ta'limi hayot bilan bog'lash.
- Ma'lumotlarni o'zlashtirishda shaxsiy faollikni shakllantirish.
- O'tgan bosqichdagi faoliyatdan qoniqish va kelgusi faoliyat uchun ijobjiy zamin hozirlash.
- Istiqbol rejani muvofiqlashtirish va yosh bosqichining yuqorilashuviga qarab buni takomillashtirib borish.
- O'quv-uslubiy qiyinchilik bilan shaxsiy nomurosasizlik belgilari o'rtasidagi uzviylikni yo'qotish.
- Kasbiy faoliyat hayotning muhim qismi bo'lib, ishdagi muvaffaqiyatlar o'ziga ishonishga yordam berishligini inobatga olish.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Shu boisdan ham har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim bo'ladi.

Kasbga yo'naltirishning samarali usullari

Kasbga yo'naltirish jarayonini samarali tashkil etish uchun bir qancha usullarni qo'llash mumkin:

1. Individual maslahatlar va testlar: Talabalarga o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini aniqlashda yordam berish uchun psixologik testlar, qiziqishlar va qobiliyatlarni aniqlovchi anketalar tashkil etish zarur. Bu testlar orqali talabalar o'zlariga mos bo'lgan sohani tanlashlari mumkin.

2. Kasbni o'rGANISH imkoniyatlarini yaratish: Talabalarni kasbga yo'naltirishda tajriba almashish va amaliyotlar juda muhim ahamiyatga ega. Talabalar amaliy mashg'ulotlar, internatura yoki malaka oshirish kurslari orqali o'z sohasini chuqr o'rGANISHlari mumkin.

3. Mehnat bozorini tahlil qilish: Kasbga yo'naltirishning samarali bo'lishi uchun mehnat bozoridagi talab va taklifni doimiy ravishda kuzatib borish lozim. Ushbu tahlillar talabalar uchun dolzarb va istiqbolli kasblar haqida aniq ma'lumotlar beradi.

4. Kasbiy seminarlar va konferensiyalar o'tkazish: Mavjud kasblar haqida ma'lumot beruvchi seminarlar va konferensiyalar o'tkazish talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Bu kabi tadbirlar orqali talabalar o'zlarining qiziqishlariga mos kasblar haqida ma'lumot olishlari mumkin.

Kasbga yo'naltirishda ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- 1) Ta'lim - tarbiya tizimida kasbga yo'naltirish faoliyatining mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi.
- 2) Kasbga yo'naltirishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi.
- 3) Soha mutaxasisi bilan hamkorlik.
- 4) Kasbga yo'naltirishda yoshlar tashkilotining ishtiroki.
- 5) Darsdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko'rsatilishi.
- 6) Ishlab chiqarish tashkilotlarida kasbga yo'naltirishni ommaviy va keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi.
- 7) Kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.
- 8) Ijodkor, nufuzli, mahoratlari kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazilishi.
- 9) Kasbga yo'naltirishda mahalliy matbuot, radio va televideniening ishtiroki.
- 10) Mutaxassis psixologlar tomonidan kasbiy bilimlarning o'quvchilarga doimiy tarzda berilishi va ular bilan individual ishslash.

Yoshlarning idividual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'naltirish shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Maktab davridagi tanlagan kasbi bilan, oliy ta'limdagi mutaxassislik yo'nalishining bir-biriga nomutanosibligi yoshlarda sohaga nisbatan sovuqqonlik muhitini shakllanishiga olib kelmoqda.

Talabalik davrida o'zi kutganidek imkoniyatning yetarli emasligi, o'z sohasining kelajagini aniq his qilolmayotgani, o'zining qobiliyati va shaxsiy xususiyatlarini namoyon qilmasligi, ularning hayotga nisbatan befarq bo'lishlariga sabab bo'lmoqda. Tanlagan kasbiy yo'nalishidan qanoatlanmagan yoshlarda, mustaqil oilaviy hayotga nisbatan ham ikkilanishlar kuzatilishi mumkin.

Xulosa

Kasbga yo'naltirish tizimi talabalar uchun o'ta muhim bir jarayon hisoblanadi. Talabalar o'z qobiliyatlari va qiziqishlariga mos kasb tanlashlari uchun ularni to'g'ri yo'naltirish va o'qituvchilarni bu jarayonni samarali amalga oshirishga tayyorlash zarur.

Kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish, mehnat bozori talablariga moslashtirish va yangi usullarni joriy etish orqali bu jarayonning samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa nafaqat talabalarning muvaffaqiyatli kelajagini ta'minlash, balki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Kasb tanlash juda muhim va shaxsiy qaror hisoblanadi. To'g'ri kasbni tanlash uchun o'z qiziqishlaringiz, iste'dodlaringiz, mehnat bozoridagi talablar, kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlari va shaxsiy hayot bilan ish o'rtasidagi muvozanatni inobatga olgan holda qaror qabul qilish lozim. Har bir kasb o'ziga xos afzalliklar va kamchiliklarga ega, shuning uchun tanlovni amalga oshirishda har jihatdan o'ylab ko'rish zarur.

Bugungi kunda ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy istiqlol g'oyasini o'zida mujassam etgan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yunalishlaridan biri hisoblanadi. Fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda raqobatbardosh kasb egalarini shakllantirish lozim.

Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishsin.

REFERENCES

1. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasbhunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdagи 425-sonli Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.08.2022 y., 09/22/425/0712-son)
2. Qodirov B.R., Qodirov K.B. Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma.T.2003 yil.
3. Nabijanova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002. - 38 b
4. G'oziev E.G'. Ontogenet psixologiyasi - Toshkent: Noshir , 2010. - 73 b.
5. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova. Kasb psixologiyasi . Darslik. T. 2018. 176 b.
6. Xaydarov F.I., Xaliliova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so`z, 2010. – 97 b Matyoqubovna, A. R. (2022).
7. Yoshlarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish ijtimoiy voqelik sifatida. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(11), 436-438.